






## 2021- yilning yanvar-iyul oylari uchun Qashqadaryo viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-iyul oylarida Qashqadaryo viloyatida jami 3346,1 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 111,3 % ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

2021- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3459 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 266 taga oshdi.



Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **3,9 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **67,2 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **5,2 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,4 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **22,4 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **24,4 %**) o'sishidir.






**Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)**

|                             | holatiga ko'ra: |                | O'tgan yilga nisbatan, % da |
|-----------------------------|-----------------|----------------|-----------------------------|
|                             | 01.08.2020-yil  | 01.08.2021-yil |                             |
| <b>Qashqadaryo viloyati</b> | <b>3193</b>     | <b>3459</b>    | <b>108,3</b>                |
| <i>shaharlar:</i>           |                 |                |                             |
| <b>Qarshi</b>               | 821             | 887            | 108,0                       |
| <b>Shahrisabz</b>           | 131             | 144            | 109,9                       |
| <i>tumanlar:</i>            |                 |                |                             |
| <b>G'uzor</b>               | 145             | 151            | 104,1                       |
| <b>Dehqonobod</b>           | 142             | 165            | 116,2                       |
| <b>Qamashi</b>              | 175             | 185            | 105,7                       |
| <b>Qarshi</b>               | 369             | 409            | 110,8                       |
| <b>Koson</b>                | 266             | 300            | 112,8                       |
| <b>Kitob</b>                | 128             | 123            | 96,1                        |
| <b>Mirishkor</b>            | 80              | 81             | 101,3                       |
| <b>Muborak</b>              | 187             | 190            | 101,6                       |
| <b>Nishon</b>               | 118             | 119            | 100,8                       |
| <b>Kasbi</b>                | 143             | 163            | 114,0                       |
| <b>Chiroqchi</b>            | 195             | 219            | 112,3                       |
| <b>Shahrisabz</b>           | 115             | 111            | 96,5                        |
| <b>Yakkabog'</b>            | 178             | 212            | 119,1                       |


**Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni, 2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Qarshi sh. (25,6 %), Qarshi (11,8 %) va Koson (8,7 %) tumanlarida qayd etildi.

2021- yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 670,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 167,2 % ga bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan 6,6 % punktga ko'payib, 20,0 % ni tashkil etdi.

**2021- yilning yanvar-iyul oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**



**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Muborak tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **56,2%** i yoki 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **31,8** martaga ko'p), G'uzor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **38,6** % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **182,1** %), Shahrizabz tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **25,8** % i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **17,9** marta ko'p ) ga to'g'ri keldi.




2021- yil  
yanvar-iyul

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi**

Qashqadaryo viloyatida qurilish ishlari

6

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan ko'payishi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **59,7 %** ni to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-iyul oylari ko'rsatkichiga nisbatan **2,0** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **108,6 %** ni tashkil etgan holda **1997,4** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **20,3 %** ni tashkil etdi yoki **678,3** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **87,6 %** ni tashkil etdi

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor**

*o'sish sur'ati, % da*


*ulushi, % da*



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 128,0 mlrd. so'm, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 3218,1 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 3,8 % va 96,2 % ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**

*ulushi, % da*







**Hududlar kesimida qurilish ishlari.  
(2021- yil yanvar-iyul oylarida)**

|                             | <b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)</b> | <b>O‘sinh sur‘ati, % da</b> | <b>Jami qurilish ishlari hajmida hududlarning ulushi % da</b> |
|-----------------------------|--|-----------------------------|---|
| <b>Qashqadaryo viloyati</b> | <b>3346,1</b>                              | <b>111,3</b>                | <b>100,0</b>  |
| <i>shaharlar:</i>           |  |                             |   |
| <b>Qarshi</b>               | 969,2                                      | 117,4                       | 29,0  |
| <b>Shahrisabz</b>           | 188,2                                      | 117,5                       | 5,6   |
| <i>tumanlar:</i>            |  |                             |   |
| <b>G‘uzor</b>               | 377,5                                      | 182,1                       | 11,3  |
| <b>Dehqonobod</b>           | 89,5                                       | 52,3                        | 2,7   |
| <b>Qamashi</b>              | 81,0                                       | 91,0                        | 2,4   |
| <b>Qarshi</b>               | 203,7                                      | 90,5                        | 6,1   |
| <b>Koson</b>                | 213,8                                      | 84,3                        | 6,4   |
| <b>Kitob</b>                | 178,0                                      | 86,5                        | 5,3   |
| <b>Mirishkor</b>            | 32,3                                       | 45,1                        | 1,0   |
| <b>Muborak</b>              | 186,4                                      | 207,9                       | 5,6   |
| <b>Nishon</b>               | 140,5                                      | 105,1                       | 4,2   |
| <b>Kasbi</b>                | 97,6                                       | 88,4                        | 2,9   |
| <b>Chiroqchi</b>            | 331,0                                      | 141,4                       | 9,9   |
| <b>Shahrisabz</b>           | 92,1                                       | 113,8                       | 2,8   |
| <b>Yakkabog‘</b>            | 165,3                                      | 111,0                       | 4,9   |

**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2021- yil yanvar-iyul oylarida**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 67,5 % i yoki **2257,8** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**67.5 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 466,5 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 20,7 % ni tashkil etdi

**20,7 %**

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 1187,3 mlrd. so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 52,3 % ni tashkil etdi.


**52,3 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 604,0 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 26,8 % ni tashkil etdi.

**26,8 %**


## Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi

2021- yilning yanvar-iyul oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari, mlrd. so'm.



**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Qarshi sh. (969,2 mlrd. so'm), G'uzor (377,5 mlrd. so'm), Chiroqchi (331,0 mlrd. so'm) hamda Koson (213,8 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi  
Tel.: 75 221-32-47